

UDK:633:11+631:1+631+55

**RESPUBLIKAMIZNING JANUBIY LALMIKOR MINTAQALARIDA
QATTIQ BUG'DOYNING MAQBUL MINERAL O'G'ITLASH VA EKISH
ME'YORLARI**

Karimova Z.A. -Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti, agronomiya
(dehqonchilik mahsulotlari turlari boyicha)
ta'lim yo'naishi 3-bosqich talabasi,

Xalilova T.N. -Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti, agronomiya
(dehqonchilik mahsulotlari turlari boyicha)
ta'lim yo'naishi 3-bosqich talabasi,

Bobomirzayev P.X. Samarqand
agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
O'simlikshunoslik kafedrası professori, q.x.f.d.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda lalmikor yerlarda yetishtirilgan boshqoli don ekinlari hosili azaldan ichki ehtiyojni qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari va kadastrı Davlat qo'mitasining malumotlariga ko'ra, 2009 yilning 1 yanvar holati bo'yicha respublikamizning 6 ta viloyatida jami 754000 gektar haydalib dehqonchilik qilinadigan lalmi yerlar mavjud.

Ma'lumki, O'zbekistonda bug'doyning ikki turiga mansub navlari ekib kelinmokda. Bug'doyzorlarning asosiy qismida yumshoq bug'doy (*Triticum aestivum*) juda oz qismida qattiq bug'doy (*Triticum durum*) yetishtirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining donga bo'lgan ehtiyoji asosan sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan hosil hisobiga qondirilmoqda. Lalmikorlikda bug'doy, ayniqsa qattiq bug'doy yetishtirish, hosildorlikni, don sifatini oshirish g'allachilikdagi dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Joriy yilda respublikamizda 200 ming gektardan ortiq lalmikor maydonlarga bug'doy urug'lari, shu jumladan qattiq bug'doy ham ekildi.

Xalq xo'jaligida qattiq bug'doy juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Qattiq bug'doy doni bir qator texnologik xususiyatlarga ega bo'lib, uning unidan tayyorlangan mahsulotlar to'yimli va juda hushbo'ydir, u yuqori sifatli yorma, makaron, vermishel va bir qancha qandolat (pechenye, tortlar, pryanik va boshqalar) mahsulotlarini ishlab chiqarishda tengsiz xomashyo hisoblanadi.

Respublikamiz lalmikor maydonlarida hozirgi paytda ekish uchun Davlat reyestriga qattiq bug'doyning Marvarid va Leukurum-3 navlari kiritilgan. Bu navlar yumshoq bug'doy navlariga nisbatan issiqqa, qirg'oqchilikka, qorakuya va zang kasalliklariga chidamli bo'lib, donlari pishganda to'kilib ketmaydi, lalmikor sharoitda barqaror va sifatli hosil beradi.

Ma'lumki, Respublika lalmikor mintaqalarida yetishtirilgan qattiq bug'doyning don sifati sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan navlar don sifatiga qaraganda bir muncha yuqori bo'ladi (Mamirov, 1984).

Yaqin kelajakda Respublika aholisining yanada ko'payishi munosabati bilan uning don va un mahsulotlariga, oqsilga boy, ekologik toza turli xil qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish muammolarini hal etishda sug'oriladigan maydonlar bilan bir qatorda lalmikor yerlardan ham samarali foydalanish muhim dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti lalmikor mintaqalarda qattiq bug'doy o'stirishga juda qulaydir. Respublikamizning lalmikor maydonlarida ekish uchun qattiq bug'doyning bir necha navlari yaratilgan bo'lishiga qaramay bu navlarning ekin maydonlari juda kam va respublikamizda rivojlanib borayotgan makaron-konditer sanoatining qattiq bug'doy doniga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Vaholanki, respublikamizda qattiq bug'doyni yetarli miqdorda yetishtirishning ilmiy va amaliy imkoniyatlari mavjud. Ammo, keyingi yillarda lalmikorlikdan foydalanish keskin darajada kamaydi. Ayrim yillari ob-havoning qirg'oqchil kelishi, dehqonchilik madaniyatining, yerlar unumdorligining pasayishi, navlarning biologik xususiyatlari hamda tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda mineral o'g'it va ekish meyorlarining o'rganilmaganligi buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Bug'doy o'stirishning eng muhim texnologik usuli ekish meyori bo'lib, uni optimal meyardan oshirish yoki kamaytirish hosildorlikni hamda bug'doy yetishtirish samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Tadqiqot uslublari. Dala tajribalarni Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida lalmikorlikning nam bilan yarim taminlangan qir-adirlik mintaqasida joylashgan «Hasan rais» fermer xo'jaligida va Kitob tumanining lalmikorlikning namlik bilan taminlangan tog' oldi mintaqasida joylashgan «Xalil o'g'li Sherali» fermer xo'jaligi sharoitlarida o'tkazdik.

Qattiq bug'doyning Marvarid va Leukurum-3 navlarini qo'yidagi ekish meyorlarida 2,0;2,5;3,0 va 3,5 mln/ga unuvchan urug' hisobida ekib o'rgandik. Tajribada qattiq bug'doy urug'lari 25 oktabrda ekildi. Dala tajribalari 4 takroriylikda, hisobga olinadigan maydonchalarning kattaligi 50 m² ga teng bo'lib, paykalchalar ikki yarusli qilib joylashtirildi. Tajribalarda o'simlik parvarishi mazkur mintaq uchun qabul qilingan texnologik jarayonlar asosida bajarildi. Tajribada o'simliklarni fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchashlar natijalari umumqabul qilingan uslublar asosida hamda olingan natijalar V.A.Dospexov (1985) uslubi bo'yicha matematik tahlil qilindi.

Olingan natijalar. Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, qattiq bug'doy yumshoq bug'doyga nisbatan tuproq unumdorligiga, o'tmishdosh ekinga, mineral o'g'itga, ekishni optimal muddatda va meyorlarda o'tkazishga umuman yuqori yuqori agrofonga talabchandir.

Bug'doy ekish meyorlariga amal qilish mo'1 va sifatli don hosili olishning muhim omilidir. Tajribalarimiz natijalarining ko'rsatishicha, lalmikorlikning namlik bilan yarim taminlangan mintaqalarida ekish meyorlarini gektariga 2,0 mln dan 2,5 mln gacha oshirish qattiq bug'doy Marvarid va Leukurum-3 navlari bo'yining baland bo'lishiga olib keldi. Gektariga 2,5 mln unuvchan urug' ekilganda o'simlik balandligi 2,0 mln ekilganga nisbatan Marvarid va Leukurum-3 navlariga muvofiq holda 1,0; 1,3 sm, 3,0 mln urug' ekilganda esa 2,3; 3,0 sm va 3,5 mln ekilganda 3,4; 4,1 sm ga oshdi. O'suv davrini 2-3 kunga uzaytirdi, hosildorligi navlarga muvofiq holda 14,8 va 12,1 sentnerni tashkil qildi yoki don hosili navlarga muvofiq holda gektariga 4,2 va 3,6 sentner ko'paydi. Ekish meyorini gektariga 3,0 mln ga oshirganda don hosili oshishida ishonarli farq kuzatilmadi. Lalmikorlikning namlik bilan taminlangan (tog' oldi) mintaqasida esa, ekish meyorlarini gektariga 2,0 mln dan 3,0 mln gacha oshirish qattiq bug'doy navlari o'suv davrini 3-4 kunga o'zaytirdi, hosildorligi navlarga muvofiq holda 16,7 va 14,2 sentnerni tashkil qildi yoki don hosili navlarga muvofiq holda gektariga 4,0 va 4,5 sentnerga ko'paydi. Ekish meyorini gektariga yanada oshirganda don hosili oshishida ishonarli farq kuzatilmadi.

Don sifat ko'rsatgichlaridan 1000 ta don massasi, don naturasi va shishasimonligi ekish meyorlarini oshirish bilan kamayishi don tarkibidagi o'sil va kleykovina saqlanishini pasayish qonuniyati kuzatildi.

Ekish meyorini gektariga 2,0 mln dan 3,0 mln gacha oshib borishi bilan gektar hisobiga olinadigan o'sil va kleykovina miqdori ham oshib bordi. Ekish meyorini gektariga 2,0 mln dan 3,0 mln gacha oshishi bilan Marvarid va Leukurum-3 navlarida bir gektardan o'silning chiqishini ham muvofiq holda oshirdi.

Ekish erta o'tkazilganda ekish meyorlari 15-20 % kamaytirilishi, aksincha kech o'tkazilganda oshirilishi yaxshi natija berdi .

Fosforli va azotli o'g'it meyorlarini o'rganish bilan bog'liq tajriba natijalarining ko'rsatishicha, lalmikorlikning namlik bilan yarim taminlangan mintaqalarida fosforli o'g'itlarni gektariga R_{40} kg shudgordan oldin va azotni bahorda tuplash fazasida N_{40} kg qo'llanganda qattiq bug'doy Marvarid navida don hosildorligi gektaridan 13,7 sentnerni tashkil qildi fosforli va azotli o'g'it meyorini yanada oshirganda don hosili oshishida ishonarli farq kuzatilmadi. Lalmikorlikning namlik bilan taminlangan tog' oldi mintaqasida esa, fosforli o'g'itlarni gektariga R_{60} kg shudgordan oldin va azotni bahorda tuplash fazasida N_{40} kg va naychalash fazasida N_{20} kg qo'llanganda qattiq bug'doy Marvarid navida don hosildorligi gektaridan 16,5 sentnerni tashkil qildi. Fosforli va azotli o'g'it meyorini yanada oshirganda don hosili oshishida ishonarli farq kuzatilmadi.

Tajribalarimizda azotli o'g'it meyorlarini oshirshi bilan 1000 ta don massasi, donning naturasi kamaytirdi, dondagi oqsil va kleykovina miqdorini hamda donning shishasimonligi oshdi.

Xulosalar. Ekish meyorlarini belgilashda navlarining biologik xususiyatlari, tuproq iqlim sharoiti, qo'llaniladigan o'g'it meyori, nam bilan taminlanganlik darajasi va boshqa omillar hisobga olinadi. Bug'doy o'stirishning eng muhim texnologik usuli ekish meyori bo'lib, uni optimal meyordan oshirish yoki kamaytirish hosildorlikni hamda bug'doy yetishtirish samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Qashqadaryo viloyatining qir-adirlik mintaqasi sharoitida qattiq bug'doyning Marvarid va Leukurum-3 navlarining maqbul ekish meyori gektariga 2,5 mln urug' va namlik bilan taminlangan tog' oldi mintaqasida gektariga 3,0 mln urug' ekanligi aniqlandi. Ekish meyorini ko'rsatilgan meyordan kamaytirish yoki oshirish ham don hosilining kamayishini kuzatish mumkin.

Lalmikor yerlarda o'g'it sug'oriladigan mintaqaga nisbatan kamroq samara beradi. Biroq shunga qaramay o'g'itdan to'g'ri foydalanilsa, bu yerlar ham katta iqtisodiy jihatdan foyda beradi. Lalmikor yerlarda madan va mahalliy o'g'itlarning samaradorligi, tuproq unumdorligi, uning eroziyaga uchraganlik darajasiga va yog'in-sochin miqdoriga bog'liqdir.

Lalmikorlikning namlik bilan yarim taminlangan mintaqalarida R_{40} kg/ga shudgordan oldin va azotni bahorda tuplash fazasida N_{40} kg/ga qo'llash, namlik bilan taminlangan mintaqalarda esa, fosforli o'g'itlarni R_{60} kg/ga shudgordan oldin va azotni bahorda tuplash fazasida N_{40} kg/ga va naychalash fazasida N_{20} kg/ga qo'llash sifatli va mo'l hosil olishni taminladi.

Фойдаланилган адабиётлар ro'yxati

Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Uslubiy qo'llanma. O'zPITI-T.2007. - B.146.

Джабборов Р.Д. Возделывания пшеницы в северном бассейне Зарафшанской долины: Автореф. дисс. ... канд. с-х. наук.- Самарканд., 1978. – 16 с.

Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. –М., 1985. -356 с.

Савицкий М.С., Синицын С.С., Широков А.С. Твердая пшеница в Сибири, -М.: ВО «Агропромиздат», 1987. - 143 с.

Халилов Н.Х. Научные основы возделывания пшеницы осеннего посева на орошаемых землях Узбекистана: Автореф. дисс. ... док. с-х. наук.- Самарканд., 1994. – 37 с.